INNOVATSION RIVOJLANISH AGENTLIGI DIREKTORI
BUYRUG‘I

2025-yil 20-noyabr **209-son** **Toshkent shahri**

Ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturlari doirasida bajariladigan amaliy tadqiqotlar tanlovini e’lon qilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–200-son hamda Vazirlar Mahkamasining “Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 9-martdagi 133-son qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini o‘z vaqtida va sifatli ta’minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 20-noyabrdagi 01/17-5153-son xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari, shu jumladan, davlat dasturlari va konsepsiyalarida bayon etilgan va topshiriqlarida belgilangan vazifalarning ilmiy yechimiga qaratilgan Ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturi doirasida bajariladigan **“Taraqqiyot uchun tadqiqot”** amaliy tadqiqotlar tanlovi (keyingi o‘rinlarda - Tanlov) e’lon qilinsin.

Tanlovni e’lon qilish matni ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. **Ilmiy loyihalar bo‘yicha davlat buyurtmalarini shakllantirish va muvofiqlashtirish bo‘limi** (N. Mirraximova), **Axborot xizmati** (M. Fayazova) va **Ilm-fan va innovatsion faoliyatni raqamlashtirish bo‘limi** (Z. Yuldashev) bilan birgalikda mazkur Tanlovga oid ma’lumotlarni Davlat ilmiy dasturlarining yagona intellektual elektron platformasiga (loyiha.ilmiy.uz) joylashtirish hamda Innovatsion rivojlanish agentligining rasmiy veb-sahifasi va ommaviy axborot vositalari orqali e’lon qilish choralarini ko‘rsin.

4. **Ilmiy loyihalar bo‘yicha davlat buyurtmalarini shakllantirish va muvofiqlashtirish bo‘limi** (N. Mirraximova), **Ilm-fan va innovatsion faoliyatni raqamlashtirish bo‘limi** (Z. Yuldashev) va **Ilmiy-texnik axborot markazi** (S. Nazirov) bilan hamkorlikda Tanlov doirasida kelib tushgan loyihalarning belgilangan tartibda ilmiy

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: VQ36570353

ekspertizasining birinchi bosqichini Davlat ilmiy dasturlarining yagona intellektual elektron platformasi (loyiha.ilmiy.uz) orqali olib borilishini ta’minlasin.

5. **Buxgalteriya hisobi va moliya-iqtisod bo‘limi** (F. Musurmonov) Tanlov doirasida kelib tushgan loyihalarning ilmiy ekspertizasini o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlarni o‘rnatilgan tartibda to‘lab berilishni ta’minlasin.

6. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Direktor v.v.b. ERI orqali imzolangan Innovatsion rivojlanish agentligi **A.Norov**

Hujjat haqiqiyligini mobil qurilma yordamida QR- kodni skaner qilish orqali tekshirish mumkin